

## INGLIZ MAQOLLARIDAGI “VATANPARVARLIK” KONSEPTI O‘ZBEKCHA TARJIMASI

**SHOHSANAM MUXTORBEKQIZI BEKMURATOVA**

*Toshkent amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi, O‘zbekiston.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ikki qardosh bo‘lmagan ingliz va o‘zbek tillarida Vatanparvarlik konseptining ifodalanishida qator maqollar va paremiologik birliklar mavjud bo‘lib, ular semantik jihatdan o‘xshash va umumiyliги na‘mayon bo‘ladi. Maqolada Vatan tuyg‘usining mazkur tillarda mavjud bo‘lgan izohli lug‘tlar yordamida qiyosiy tahlili berilgan. Jummalarda Vatan tuyg‘usining mental ma‘nolari nafaqat nazariy, qolaversa, ushbu leksemaning semantik jihatdan qanchalik boyligi donishmandlar fikrlari orqali maqolada bayon etiladi.

**Kalit so‘zlar:** *Vatanparvarlik, ingliz maqollari, vatan tuyg‘usi, sevish, ona-yurt, dunyoning til manzarasi, konsept.*

**Kirish:** XXI asrda yuzaga kelgan tilshunoslikning yo‘nalishlari til hodisalari nuqtayi nazari, mezonlar, me‘yorlar asosida tadqiq etishni taqozo etadi. Tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlarining o‘zaro kesishuvi sifatida maydonga kelgan lingvomadaniyatshunoslik sohasi “dunyoning til manzarasi”, “konsept”, “diskurs” kabi yangi tushunchalarning iste‘molga kiritilishiga sabab bo‘ldi. Yangi tushunchalar, o‘z navbatida, til hodisalarini “inson+til+ madaniyat” prizmasi orqali o‘rganish zaruratini yaratdi. Tilshunoslikning stilistika bo‘limida esa maqollar nutqning bezagi, fikr ifodalashning o‘ziga xos shakli ekanini e‘tirof etadi. Lingvomadaniy tadqiqotlar doirasida maydonga kelgan ilmiy qarashlar maqollar ma‘lum bir xalqning milliy, o‘ziga xos, spesifik dunyoqarashini ifoda etuvchi muhim vositalardan biri sifatida o‘rganishning dolzarbligini ko‘rsatadi. Maqollar milliy dunyoqarashni ifodalovchi vositalardan biri ekanligi, ularni tarjimada qayta yaratishda tarjimon oldiga murakkab vazifani qo‘yadi. Etnospetsifik mentallik, madaniy dominantlar shakllanishi uchun bazaviy (tayanch) hisoblangan madaniyatning asosiy konseptlarini tadqiq etish

favqulodda dolzarb muammoga aylangan. Har bir madaniyatda o'zining asosiy konseptlari mavjud bo'lib, ularni o'rganish ustida hozirgi vaqtda faol ishlar olib borilmoqda. Olamning manzarasi tilda umuminsoniy va spesifik qismlarni o'z ichiga oladi, bunda ushbu qiyofaning spesifik qismi obyektlarning xilma-xil nominativ zichligiga, turlicha baholash tasnifiga, qadriyatlarining har xil kombinatsiyalashganligiga olib keladi. U o'zaro bog'langan baholashning turli ko'rinishlarida rekonstruksiya qilinadi, ular huquqiy, diniy, axloqiy kodekslarga mos keladi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Lingvomadaniy yondashuv milliy konseptosferaning xususiyatini madaniyatdan ong tomonga bo'lgan yo'nalishini o'rganadi. Bu yo'nalishda izlanishlar olib borayotgan olimlar qatoriga Y.S.Stepanov, V.I.Karasik, V.A.Maslova, D.U.Ashurova va boshqalar kiradi. Bu yo'nalishda konseptlar madaniyatning asosiy birligi hisoblanib, obrazli, pragmatik va stilistik hodisa sifatida o'rganiladi. Albatta, yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlar shartli ravishda farqlanadi chunki bunday turkumlash zamonaviy kognitiv tilshunoslikda mavjud bo'lgan qarashlarni belgilab beradi, xolos.

Shuningdek, Azim Hojiyevning "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" nomli kitobida esa vatan so'ziga izoh berilishi bilan birgalikda, ushbu tushunchaga mamlakat, yurt, diyor, el, mulk kabi so'zlar sinonim sifatida berilgan. Chunonchi, mashhur olim A.N.Tolstoy quyidagi fikrlari o'rinlidir. *Vatanga nafi yo'q. Yashalgan har kun, inson hayotida qolur bemazmun. Vatan uchun chala ish qilish, uning uchun hech nima qilmaslik.* Shu fikrdan ayonki, inson hammadan avval, o'z mamlakatining farzandi, vatan manfaatlarini diliga jo qilgan shaxsdir. Shu sababli saxovatning eng buyuk jasurliklari Vatanga muhabbat tufayli yuzaga kelgan. Biz ushbu maqolamizda nafaqat yuqoridagi nazariy fikrlar, qolaversa, ushbu fikrlar isbotini qadimgi o'tmish ajdodlarimizni boy madaniy meroslaridan foydalangan holda, misollar bilan bayon qilamiz. Jumladan, quyidagi oliyjanob fikrlarni bayon etamiz. Buyuk sarkarda Amir Temur shunday deydi; Vatanparvar – o'z vatani kamoloti yo'lida, o'z xalqiga muhabbati tufayli ezguliklari tugul, jonini ham ayamaydigan insondir, xalqi va vatani ozodligi uchun o'zini qurbon qiluvchi insondir. Vatanparvarlikning tarbiyaviy ahamiyati juda

katta, bu kishini bashariyat haqidagi g'oyalar bilan ulg'aytiradigan maktabdir. Vatan g'oyasi hamma uchun bir xil manfaatlidir. U halol kishilarda jasorat haqida fikr uyg'otadi, nopoq kishilarni esa, agar vatan g'oyasi bo'lmaganda, qilishlari aniq bo'lgan qabihliklardan saqlaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi** Ushbu maqolada, asosan, tavsifiy, chog'ishtirma, konseptual tahlil usullaridan hamda til nazariyasi, madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasida qo'llaniladigan ilmiy metodlardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar:** U yoki bu leksemaning madaniy dominantasi asosiy so'z sifatida tan olish uchun mental (verballik) matnlarda umumqo'llanuvchi frazeologizmlar tarkibida, maqol va matallar ichida mavjud bo'ladi. Biz kuzatishlarimizda qator maqollarni ko'rib tahlil qilganimizda shunga guvoh bo'ldikki, ikki qardosh bo'lmagan ingliz va o'zbek tillarida Vatan tuyg'usini metaforik jihatdan ifodalanishi uchun qator maqollar va paremiologik birliklar mavjud bo'lib, ular semantik jihatdan o'xshash va umumiylik namoyon bo'ladi.

Masalan: *There is no place like home – O'z uying o'lan to'shaging.*

Bulbul chamanni sevar odam Vatanni—*Every bird lives its own nest.*

O'z uyimning xushligi oyoq qo'limning bo'shligi. – *East or west home is best.*

Ushbu misollardan ko'rinib turibdiki, har ikki qardosh bo'lmagan tillardagi maqollarda nafaqat semantik o'xshashlik, qolaversa, strukturaviy jihatdan ham moslik holatlari mavjud. Yana shunday fikrlar borki, zero, sevgisiz hayot bu hayot emas, shunchaki tirikchilik o'tkazishdir. Sevgisiz yashash mumkin emas, ayni shu sevis uchun ham odamga yurak berilgan va insonlar o'z yuragidagi bor iliq tuyg'larni ba'zan oshkora aytishga qiynaladi. Shu tufayli ushbu nozik tuyg'uni ba'zan she'riy misralar yoki boshqacha yo'llar bilan izhor qilishga harakat qilamiz.

Umuman olganda, sevgi va muhabbat tuyg'ulariga ko'plab ta'riflar berilganligini ko'ramiz. Lekin xalqmizda Vatanga sevgi va muhabbat to'g'risida shunday iliq fikrlar bor. Har ikkala tilda Vatanga muhabbat uni sevis uning inson uchun tanho va yagonalagini ifodalovchi maqollar mavjud bo'lib, ular semantik jihatdan ikki qardosh bo'lmagan tilda aynan bir xil ma'noni anglatadi.

Masalan, *One who does not love his homeland can love nothing* – Vatanni sevmagan hech narsani seva olmaydi. *To survive a winter in your native land is better than to live ten years of spring in another land* – O‘zga yurtda o‘n yil bahorda yashagandan ko‘ra o‘z yurtida qishda yashagan maqul; *The native land – is the past, the present and the future of a nation* – Vatan xalqning o‘tmishi, buguni va kelajagi. *Each has only one native land and only one mother* – Har kishining bitta ona yurti va faqat bitta onasi bor.

Har ikki tilda keltirilgan misollarda paremiologik tushuncha lingvokonseptlarning konseptual belgilari va ularning lisoniy aks etishini, ifodalanishi, tasvirlashi, belgi strukturasi, definitsiya tomonlarining qiyosiy xarakteristikasi u yoki bu umumiylikka ega, ya’ni insondagi verbal his-tuyg‘ular birdek aks etadi.

Tadqiqot mobaynida shuning guvohi bo‘ldikki, Vatan tuyg‘usini ifodalashda biz yuqorida ushbu konseptning *yurt, maskan, ona yer, tug‘ulgan yer, uy* kabi sinonimlarning aynan ikki tilda maqollarda quyidagi ma’nolarni ifodalab kelganligini ko‘ramiz. Masalan: *Kishi yurti sira yurtlik qilmaydi – A man’s country is not a country at all*; *Qush ham ketsa keladi – o‘z uyini sevadi – Every dog is a lion at home*; *Tug‘ilgan yerdan ko‘ngil uzilmas – The wider roam, the welcome home* kabi maqollarda har ikki tilda Vatan tuyg‘usining naqadar kuchli qudratga ekanligining guvohi bo‘lamiz.

Biz ushbu tadqiqotimizda yana quyidagi metaforik o‘xshatishlar bilan misollarni davom ettiramiz. Kuzatishlarimizda ingliz tilida *homeland, motherland* leksemalaridan tashqari, Vatan konseptining turli *home, country, land* kabi so‘zlar orqali berilgan maqollarni ham ko‘rishimiz mumkin.

Maqolada Vatanga xiyonat, uning qadriga yetmagan vatanfurushlarning oxiri voy bo‘lishi kerak bo‘lsa, gadoy bo‘lib xor-u zor holatlariga tushish barcha tillar kabi ingliz va o‘zbek tillarida mavjud bo‘lgan maqollar orqali ushbu salbiy munosabatni ko‘rsatishimiz mumkin.

Masalan: *Vatan gadosi – kafan gadosi – Dry bread at home is better than roast meat abroad*; *Kishi yurti sira yurtlik qilmaydi – A man’s country is not a country at all*. *O‘lsang o‘l vataningda bo‘l – Home is home though it’s never so* kabi maqollarda insonning vatan oldidagi burchi va o‘zga yurt hech qachon yurt bo‘la olmasligi bayon

etiladi. Biz o‘zbek xalqida inson yordan ayrilsa ham, eldan ayrilmasligi lozimligini ifodalovchi metaforik o‘xshatishlarni tez-tez eshitamiz yoki nutqda qo‘llaymiz.

Masalan: Yordan ayrilsang ham, eldan ayrilma. Yoridan ayrilgan yetti yil yig‘lar, Yurtidan ayrilgan o‘lguncha yig‘lar. Yoringni gul orasidan izla, erkingni – el orasidan. Yigit g‘ami elida, elning g‘ami dilida. Ko‘rinib turibdiki, ushbu maqollarda inson uchun ona yurtning, elning qadri qanchalik ahamiyat kasb etishi va muhimligi tengsiz baholanadi. Yana shunday maqollar borki faqat o‘zbek madaniyatiga urf odatlariga xos bo‘lib, inglizlarda bunday mental ma‘noni anglatuvchi maqollar deyarli kuzatilmaydi.

Masalan: Ayrilmagin elingdan, Quvvat ketar belingdan. Vatanga kelgan – imonga kelar. Vatangado bo‘lguncha, kafangado bo‘l. Vatandan yiroqlashgan – nomusdan o‘lar.

Yuqorida biz ko‘proq o‘zbek madaniyatiga xos bo‘lgan maqollar tahlillariga e‘tiborimizni qaratgan bo‘lsak, endi biz ingliz madaniyatiga xos bo‘lgan maqollarga ham izoh berishga harakat qilamiz. Jumladan, shunday maqollardan ayrimlarini berib o‘tamiz.

*The land is good where you were fed, but not better the one you were born on* – Siz oziqlangan yer yaxshi, lekin siz tug‘ilgan joyingizdan yaxshiroq emas.

*In his land one cannot be lost, outside it one cannot rejoice* – Uning yurtida odam yo‘qolmaydi, undan tashqarida quvonib bo‘lmaydi.

*The native land is your mother, a foreign land – stepmother* – Vatan – onajon, begona yurt – o‘gay ona.

*He who doesn't live in his homeland knows nothing about the test of life* – O‘z vatanida yashagan odam hayot sinovi haqida hech narsa bilmaydi.

*He who battles under the native skies gains the lion's courage* – Vatan osmoni ostida jang qilgan kishi sherning jasoratiga ega bo‘ladi.

Ushbu keltirilgan ingliz tilidagi maqollarda aksariyat metaforik holatlarni ifodalovchi misollar ingliz mentalitetiga va madaniyatiga xosligi bilan ma‘lum ma‘noda ajralib turibdi. Asosan, Vatan tuyg‘usi va unga hurmat, uni himoya qilish, unga xizmat qilish, kerak bo‘lsa, vatan osmon ostida jang qilish kabilarning barchasi qanchalik sharafliligi ekanligi bayon etilgan. Ingliz tilida shunday maqollar borki, ularning ayrimlari semantik jihatdan o‘zbek tildagi maqollarga ham o‘xshab ketadi.

Jumladan, *It's better to be a poor man in your homeland than a king in Cairo* (Qohirada podshoh bo'lgandan ko'ra, o'z vataningizda kambag'al bo'lganingiz yaxshi).

*He who doesn't live in his homeland knows nothing about the test of life* (O'z vatanida yashamagan odam hayot sinovi haqida hech narsa bilmaydi).

*One loses his homeland – loses all* – Inson vatanini yo'qotadi – hamma narsani yo'qotadi kabi maqollarda vatanga sadoqat, hurmat, shuningdek, vatandan ayrilish, turli sinovlarda mardona munosabatda bo'lish kabi g'oyalar ifodalanadi.

Ingliz tilida yana shunday maqollar borki, ularda Vatan so'zi ona kabi muqaddas ekanligi bayon etiladi. Masalan: *The best country is your motherland, the best friend is your mother* (Eng yaxshi yurt – vatan, eng yaxshi do'st – ona).

*House upon a rock, build one's* (Uyim tinch, ko'nglim tinch). Ko'rinib turibdiki ushbu maqoldagi mazmuni o'zbek tilida ham mavjud bo'lgan maqollar tarkibida ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, ingliz tilda shunday maqollar borki, ular ko'proq salbiy manoda kelib, ulardagi asosiy g'oya o'z vataniga nisbatan ijobiy fikrda bo'lmaslik namoyon etiladi. Masalan, *It is an ill bird that fouls its own nest* – O'lgisi kelgan shaqol o'z iniga qarab uvillar. *It's the man who make a city* – Yurtda odam bo'lmasa, to'ng'iz tepaga chiqarmish kabi maqollarda asosiy g'oya vatanga muhabbat, sadoqat emas, balka xiyonat yoki ko'rolmaslik kabi salbiy g'oyalar bayon etiladi. Metaforalar qiyosiy tahlili, avvalambor, ikki til uchun umumiy bo'lgan metaforik birliklarni ajratib olishdan boshlanadi. Ingliz va o'zbek tillari uchun vatan konseptning xuddi shirin-lazzatli substansiyadagi kabi ko'proq referensiya mavjud bo'lgan holatlarni ham kuzatishimiz mumkin. Masalan: *It is sweet and right to die for the homeland, but is sweeter to live for the homeland. The sweetest to drink for it. Therefore, let us drink to the health of the homeland.* O'zbek tilidagi maqollarning ko'pchiligi vatanga nisbatan muhabbat, sadoqat va hurmat kabi mental ma'nolar ifodalangan misollarni yuqorida bir necha holatda ko'rdik. Lekin yana shunday maqollar borki, ularda asosiy g'oya biomorf ma'noli fikrlarga tayanadi. Jumladan: Baliq suv bilan tirik, Odam – el bilan. Begona tuproq – devona tuproq. Ona yerning tuprog'i – ona sutidan aziz. Bulbul chamanni sevar, Odam – Vatanni. Bulbulga bog' yaxshi, Kaklikka – tog'.

Ushbu misollar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, Vatanga muhabbat ishori turli xil o‘xshatishlarga xos vaziyatlarni ko‘rish mumkin. Vatanga muhabbat tuproq, bog‘, yer, chaman misolida ifodalash mumkin.

Shuningdek, o‘zbek tili frazeologik yoki paremiologik matereallarida ham shunday maqollar mavjudki, ulardagi asosiy metaforik g‘oya boylik, qadr-qiyamat ma’no – xususiyatlari ifodalanganligini kuzatish mumkin:

Ona yurtning—oltin beshiging.

Kishi yurtida shoh bo‘lguncha, O‘z yurtida gado bo‘l, kabilar.

Ushbu keltirilgan misollarda paremiologik tushuncha lingvokonseptlarning konseptual belgilari va ularning lisoniy aks etishi, ifodalanishi, tasvirlashi, belgi strukturasi, definitsiya tomonlarining qiyosiy xarakteristikasi u yoki bu umumiylikka ega bo‘lgan insondagi verbal his-tuyg‘ular birdek aks etadi.

**Xulosa va takliflar:** Har ikkala tilda Vatanga muhabbat uni sevish uning inson uchun tanho va yagonalagini ifodalovchi maqollar mavjud bo‘lib, ular semantik jihatdan ikki qardosh bo‘lmagan tillarda aynan bir xil ma’noni anglatadi; – ingliz va o‘zbek tillari uchun vatan konseptning xuddi shirin-lazzatli substansiyadagi kabi ko‘proq referensiya mavjud bo‘lgan holatlarni ham kuzatishimiz mumkin. Qiyoslanayotgan har ikki tilning lingvomadaniy jihatdan sezilarli darajada farqli tomonlarini uchratsak-da, ammo umumiylikka xos bo‘lgan jihatlarini ham maqolada ko‘rishimiz mumkin bo‘ldi.

### **Adabiyotlar ruyxati**

1. Саломов Ф. Мақол ва идиомалар таржимаси. Т., “Фан”, 1961, 162-бет.
2. Apperson G.L. The Wordsworth Dictionary of Proverbs. Wordsworth Reference. 1993, p. 644.
3. [www.specialdictionary.com/proverbs](http://www.specialdictionary.com/proverbs)
4. Караматова К., Караматов Х.С. Proverbs. Мақоллар. Пословицы. Т., “Меҳнат”, 2000, 398-бет.
5. Абдазова Гулсанам Иномжон қизи Тешабоева, Зиёдахон Қодировна “Boburnoma” tarjimasida ekvivalentlik tadriji. Uzbekistan Language and culture Volume 3 (4). Tashkent. – 2023, bet 81 – 90.
6. TESHABOYEVA, Ziyodakhon. "A Comparative Analysis Of Phraseological Units In “Baburnama” And Their Different English Translations."

7. Abdullayeva M. R. INGLIZCHADAN TARJIMADA FRAZELOGIZMLAR MA'NOSINI BERISH MUAMMOLARI //GOLDEN BRAIN. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 595-600.

8. Teshaboyeva Z. Q. A Cognitive Study of “Baburnama”’S Translations and Principle of Compiling a Textual Dictionary //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 1994-2006.

9. Teshaboyeva Z. TRANSLATIONS OF PHRASEOLOGICAL UNITS AND PROVERBS OF" BOBURNOMA" INTO ENGLISH //Paradigmata poznani. – 2016. – №. 3. – C. 74-78.

10. Bekmuratova, Shohsanam Mukhtorbek Kizi TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN INCLUSIVE EDUCATION // ORIENSS. 2022. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/teaching-foreign-languages-in-inclusive-education>.

11. Bekmuratova, S. (2023). LINGUISTIC FEATURES OF PROVERBS ON THE THEME OF PATRIOTISM IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. “YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA FAN VA TA’LIM INTEGRATSIYASI MASALALARI” *Mavzusidagi Respublika ilmiy–amaliy Anjumani MAQOLALAR TO’PLAMI*, 1(1), 119–122. <https://doi.org/10.55439/yutsftim/571>

12. Bekmuratova Shohsanam Muxtorbek qizi. (2022). PEDAGOGICAL TECHNOLOGY AND METHODS IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 1(6), 143–147. Retrieved from <http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/104>

13. Shokhsanam Mukhtorbek Qizi Bekmuratova CULTURAL FEATURES OF PROVERBS IN ENGLISH AND UZBEK ON THE TOPIC OF HOMELAND // Scientific progress. 2023. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/cultural-features-of-proverbs-in-english-and-uzbek-on-the-topic-of-homeland>.

14. Тешабоева З. Қ. “Бобурнома” нинг инглизча таржималаридаги фразеологик бирликларнинг когнитив ва лексикографик тадқиқи. Филол. Фан. доктори (DSc) дисс. автореф. – 2017.